



**MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA SIFATINI TA'MINLASHDA HAMKORLIK
PEDAGOGIKASINING O'RNI**

Musoyeva Fazila Oydinovna

Buxoro viloyati Romitan tumani 18-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamkorlik asosida ta'lim va tarbiya sifatini oshirish masalalari yoritilgan. Muallif ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashda hamkorlik pedagogikasining ahamiyatini asoslab bergen.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, hamkorlik, ta'lim sifati, boshqaruv, kognitiv, oila institutlari, mahalla, jamoatchilik.*

KIRISH

Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishda ularning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini uyg'unlashtirishga e'tibor beriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda asosiy rolni bajaradi, shuning uchun ularga ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z xizmatlarini taqdim etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'lda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson omili, uning manfaatlari ustuvor o'ringa ega bo'lib kelmoqda. Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash haqida g'amxo'rlik qilish ushbu siyosatning ustuvor yo'nalishitidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risidagi qarorlari qabul qilinganidan so'ng, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi falsafasi ishlab chiqila boshlandi. Bu ota-onalar bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun javobgardir va boshqa barcha ijtimoiy institutlar ushbu faoliyatni qo'llab-quvvatlashga va to'ldirishga chaqiriladi degan fikrga asoslanadi.

ADANIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti oilani qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy tashkilot sifatida bolani tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishga yordam beradi. Mayjud ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy sharoitda oila va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlar mahalla fuqarolar yig'ini faoliyatining muhim yo'naliishi hisoblanadi. Ma'lum bir bosqichda oila, ilk bolalikni parvarish qilish maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mahalliy jamoatchilik asosiy o'quv, tarbiyaviy va rivojlanayotgan mikromuhit – ta'lim makonini tashkil qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ham, oila ham, mahalla ham ijtimoiy tajribani bolaga o'ziga xos tarzda yetkazadi. Faqat ular bir-biri bilan uyg'un holda kichkina insonning katta dunyoga qadam tashlashlari uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi.

Hamkorlik konsepsiyanining eng asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topib, o'z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas'uliyatini sezaladigan, insonparvar bo'lishiga qaratilgan.



Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati eng avvalo, quyidagi bir qator muhim omillarga bog'liq:

- maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etilishi;
- tarbiyachilarda zarur bilimlar va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini samarali joriy etilishi;
- tarbiyachilarda ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi;
- tarbiyachilarning pedagogik ehtiyojiga asoslangan metodik xizmatning samarali yo'lga qo'yilganligi;
- tarbiyachilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarining o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatish, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga oid chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish.

V.A.Suxomlinskiy, tarbiya va rivojlanish vazifalari bolalar bog'chasi oila bilan aloqani saqlab, uni o'z ishiga jalb qilgan taqdirdagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkinligini ta'kidlaydi. Oila va yosh bolalarni parvarishlashning maktabgacha yoshdagи bolalar shaxsi rivojlanishiga ta'siri prinsipial ravishda pedagoglar, jamoat tashkilotlari va oilalarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi, bunda tarbiya bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslar, tashkilotlar, jamoat tashkilotlari birgalikda harakat qilishlari, kelishilgan talablarni bir-birlariga ko'rsatishi, bir-birlariga yordam berishi, pedagogik ta'sirni to'ldirish va kuchaytirishi kerak. Agar bunday birdamlik va sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishga erishilmasa, unda muvaffaqiyatga erishish qiyin. MTT bilan oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorligini tashkil etish quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi do'stona muloqot

- Tarbiyachilar har kuni ota-onalar bilan muloqot qilishadi va bu butun oilaning maktabgacha ta'limga munosabati qanday bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Har kuni tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi xayrixohlik aloqasi alohida o'tkaziladigan tadbirdan ko'proq narsani anglatadi.

- Ushbu tamoyil muloqotga ijobiy munosabatni nazarda tutadi va tarbiyachilar butun faoliyati davomida ota-onalar bilan ishlashi uchun zamin yaratadi. Tarbiyachilarning ota-onalar kategoriyalari bilan muloqotida talabchan ohang mos emas.

Individual yondashuv Hamkorlikning ushbu prinsipi nafaqat bolalar bilan ishlashda, balki, ota-onalar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar bilan muloqotda bo'lgan tarbiyachilar vaziyatni, ota-onalarning kayfiyatini his qilishlari kerak. Bu yerda tarbiyachilarning ota-onalarga ishonchi, hamdardligi va birgalikda muayyan vaziyatda bolaga qanday yordam berishini o'ylash qobiliyati va pedagogik qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Dinamiklik; MTT bugungi kunda oddiy faoliyat ko'rsatish rejimida emas, balki rivojlanish rejimida bo'lishi kerak, mobil tizim bo'lishi, ota-onalarning ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlarga, ularning ta'lim ehtiyojlariga va ta'limga bo'lgan talablariga tezda javob berishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda MTTning oila bilan ishlash shakli va



yo'nalishi o'zgarishi kerak. Ochiqlilik ; Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila uchun ochiqligi – har bir ota-onaga uning bolasi qanday yashayotganini va rivojlanishini bilish va ko'rish imkoniyatini yaratib berishdan iborat. Bu muammoli vaziyatlarning paydo bo'l shining oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtaida shaxsiy aloqalarni o'rnatish, har kuni ota-onalarga bolaning kunni qanday o'tkazganligi, nimani o'rganganligi, qanday yutuqlarga erishganligi haqida ma'lumot berib borish kerak. Shu asosda ota-onalarning psixologik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash zamonaviy davrning eng dolzarb vazifasiga aylandi. Ota-onalar va tarbiyachilarning birgalikdagi faoliyati bizga bolalarni tarbiyalashda mavjud muammolarini birgalikda aniqlash va ularni hal qilish imkonini beradi. Bunday hamkorlik quyidagi jihatlarga yordam beradi: – ikkala tomonning ta'lim olishi imkoniyatlarini o'rganish; – yutuqlar va muammolarni tarbiyachi bilan birgalikda aniqlash (bolaning rivojlanish xaritasi ma'lumotlari asosida); – o'qitish, ta'lim va rivojlanishning dolzarb muammolari nuqtayi nazaridan bolalar va kattalarning birgalikdagi loyihaviy faoliyati. Eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ko'p jihatdan barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarda zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etilishiga bog'liq. Shu bilan bir qatorda, o'tgan davr mobaynida kechiktirib bo'l maydigan chora-tadbirlar ko'rishni taqozo qiladigan bir qator jiddiy muammolar yuzaga keldi. Maktabgacha ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishga oid takliflar ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi, ularni pedagogik amaliyotda qo'llash metodologiyasi ishlab chiqiladi, mazkur tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishish maqsad qilib qo'yiladi.

Jumladan: 1. Maktabgacha ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning mexanizmi hamda shu jarayonda foydalilanidigan metod va vositalar ilmiy-metodik jihatdan asoslanadi. 2. Maktabgacha ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning metodlari aniq belgilanib, tizimlashtirilgan, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan model yaratiladi. 3. Maktabgacha ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning texnologiyalari yaratiladi. 4. Maktabgacha ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini amaliyotga samarali joriy etishni istiqbolli rejasiga va nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini rejallashtirish, uni amalga oshirish, mashg'ulot reja, dasturlarning mazmun-mohiyati, balki tarbiyalanuvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan ham belgilanadi. Shunday ekan, bugungi kunda hamkorlik pedagogikasiga asoslangan g'oyalar ta'lim-tarbiya tizimiga singib ketishi ayni muddao.

XULOSA

Hamkorlik pedagogikasi – an'anaviy o'qitishdan farq qilib, bola bilan do'stona munosabat o'rnatishga qaratiladi. Endi oldingi an'anaviy "men" o'rniga "biz", ya'ni hamkorlikda – "subyekt"-“subyekt” munosabatlariga asoslangan holatda pedagogik faoliyat tashkil etiladi. “Hamkorlikda ishlash” tamoyili bola shaxsini chuqur bilishga asoslaniladi.



Mashg'ulot topshiriqlarini bajarishdan oldin strategik maqsad belgilanadi, so'ngra uni bajarish uchun bolada o'z kuchiga ishonch tuyg'usi shakllantiriladi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasi bola shaxsiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ta'lim-tarbiya jarayonida iliqlik, hamkorlik, bola xohish-irodasini yagona maqsadga – ta'lim olishga yo'naltiradi. Shunday qilib, hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini, hamkorlik pedagogikasi prinsiplari va konseptual g'oyalarini amaliyotga joriy etish ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". – T.: Sharq, 1997-y.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". – T.: Sharq, 1997-y.
3. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс.докт.пед. наук : 13.00.01 / У.И.Иноятов; – Т., 2003. – С.236.
4. Иноятов У.И. Инновационный характер управления качеством образования внутри колледжа // Kasb-hunar ta'limi jurnali. – 2001. – №6. – 28-31-betlar.